## № 40627 сонли Ш А Р Т Н О М А

**Гагарин ш.** **11 март 2022 йил**

Узбукистон Республикаси Сув хўжалиги вазирлиги Сирдарё-Зарафшон ирригация тизимлар хавза бошкрмаси Мирзачўл туман ирригация булими(кейинги уринларда «Буюртмачи» деб юритилади) номидан Низом асосида иш олиб борувчи булим бошлиғи **И.Суванов** ва **«ODIL BEK GOLD HOUSE» MCHJ** (кейинги уринларда «Пудратчи» деб юритилади) номидан Низом асосида иш олиб борувчи рахбари **О.Хамрақулов** мазкур шартномани куйидагилар хакида туздилар.

### 1. Шартноманинг предмети

1.1. Пудратчи уз зиммасига Буюртмачининг топширигига кура уз материаллари ёки буюртмачининг материалларидан фойдаланиб: мазкур шартноманинг 1.2-бандида курсатилган ишларни бажариш ва унинг натижасини Буюртмачига топшириш мажбуриятини олади, Буюртмачи эса ишларнинг натижасини кабул килиб олиш ва бунинг учун хак тулаш мажбуриятини олади.

1.2 Пудратчи **"Жиззах вилояти Мирзачўл туманидаги Р-2 (ПК30+00 дан ПК90+00 гача ва ПК110+00 дан ПК156+70 гача)** каналини механизм ёрдамида тозалаш" ишларини бажариш мажбуриятини олади.

1.3. Пудратчи ишларни узининг материалларидан,узининг машина механизмлари билан бажаради.**Ёнилги мойлаш махсулотларини буюртмачи хисобидан таъминлаб берилган тақдирда,бажарилган ишлар далолатномаси расмийлаштиралаётганда бажарилган иш хажмидан ёнилги мойлаш махсулотлари харажатлари кайтариб колинади.**

1.4. Ишларни бажариш муддати: 2022 й 10 мартдан, 2022 й 31 мартгача Пудратчи ишларни муддатидан олдин бажариш хукукига эга (эга хмас).

1,4.1. Буюртмачи ва Пудратчининг ваколати вакиллари томонидан бажарилган ишларни кабул килиш ва топшириш тугрисидаги молиявий хужжатлари (Форма-2, Форма-3, хисоб-фактура ва бошка хужжатлар) имзолангандан кейин бажарилган деб хисобланади.

### 2. Тарафларнинг хукук ва мажбуриятлари.

2.1. Пудратчининг мажбуриятлари:

2.1.1. Ишларни лозим булган сифатда бажариш.

2.1.2. Ишларни мазкур шартноманинг 1.4-бандида курсатилган муддатда бажариш.

2.1.3. Ишларнинг натижасини Буюртмачига топшириш.

2.1.4. Агар Пудратчи ишларни бажариш жараёнида шартнома шартларидан ишларнинг сифатини ёмонлаштиришга олиб келадиган четга чикишга йул куйган булса, Буюртмачининг талабига биноан аникланган барча камчиликларни 20 кун ичида бартараф этиш.

2.2. Пудратчи куйидаги хукукларга эга:

2.2.1.Буюртмачи томонидан маскур Шартноманинг 3-бандида курсатилган хак тулаш мажбурияти бажарилмаганда, Пудратчи ишларнинг натижасини ушлаб туриш хукукига эга.

2.3. Буюртмачининг мажбуриятлари:

2.3.1. Пудратчидан ишлар тугалланганлиги хакида хабарнома олгандан кейин 2 кун ичида ёки мазкур Шартноманинг 1.4-бандида курсатилган муддат тугаганда, ишларнинг натижасини куриб чикиш ва кабул килиш, ишларнинг натижасини ёмонлаштирадиган шартномада четга чикишлар ёки ишлардаги бошка камчиликлар аникланганда, улар хакида Пудратчига дархол хабар бериш.

2.3.2. Ишларнинг натижаларини кабул килган пайтдан бошлаб мазкур шартноманинг 3-бандида курсатилган бахо буйича ишлар учун хак тулаш.

2.4. Буюртмачи куйидаги хукукларга эга:

2.4.1. Хар кандай вактда Пудратчининг фаолиятига аралашмаган холда у томонидан бажариладиган ишларнинг бориш жараёни ва сифатини текшириш.

### 3. Шартноманинг бахоси ва хисоблашишлар тартиби.

3.1. Мазкур шартноманинг бахоси ҚҚС билан **96 194 382.0 (Тўқсон олти миллион бир юз тўқсон тўрт минг уч юз саксон икки)** **сум**ни ташкил килади:

3.1.1. Буюртмачи Пудратчига бажариладиган ишлар олдиндан 30 фоиз микдорида бунак (аванс) туловларини амалга оширади. Бажарилган ишларни кабул-килиш ва топшириш тугрисидаги хужжатлар имзоанганидан сунг, охирги узил-кесил хисоб-китоблар боскичма-боскич амалга оширилади.

3.1.2. Бюртмачи томонидан Пудратчига шартнома бахосини тулаш Бажарувчининг мазкур шартномада курсатилган хисоб-китоб хисоб варагига пул маблагларини кучириш йули билан амалга оширилади.

### 4. Тарафларнинг жавобгарлиги.

4.1. Пудратчи мазкур шартноманинг хар бир кечиктирилган кун учун шартнома суммасидан 0,5% микдори хисобида пения тулайди.

4.2. Буюртмачи мазкур шартноманинг хар бир кечиктирилган кун учун шартнома суммасидан 0,5% микдори хисобида пения тулайди.

4.3. Мазкур шартномада кузда тутилмаган тарафларнинг жавобгарлик чоралари Узбекистон Республикаси худудида амал килувчи фукаролик конунчилиги меъёрларига мувофик кулланади.

4.4. Неустойка тулаш тарафларнинг улар олдида турган мажбуриятларини бажаришдан ёки шартларнинг бузилишини бартараф этишдан озод этмайди.

### 5. Низоларни хал килиш тартиби.

5.1 Мазкур Шартномани бажаришда юзага келадиган низолар ва келишмовчиликлар Тарафлар уртасида имкон кадар музокаралар йули билан хал килинади.

5.2. Низоларни тарафларнинг музокаралар йули билан хал килиш имкони булмаган такдирда, тарафлар келишмовчиликларни бартараф килиш борасида конунчиликда кузда тутилган йуллар билан хал килинади.

### 6. Якуний коидалар.

6.1. Мазкур шартномага киритиладиган хар кандай узгартириш ва кушимчалар, улар факат ёзма шаклда тузилиб, тарафларнинг бунга ваколатли вакиллари томонидан имзоланиши шарти билан хакикий хисобланади.

6.2. Мазкур шартнома икки нусхада тузилди. Иккала нусха айнан бир хил ва тенг кучга эга. Томонларнинг хар бирида мазкур Шартноманинг бир нусхаси мавжуд.

6.3. Мазкур шартнома имзоланиб, Газначилик томонидан руйхатга олингандан кейин кучга киради ва 2022 йил 31-декабрга қадар амал қилади.

### 7. Томонларнинг манзили ва банк реквизитлари.

| П У Д Р А Т Ч И: | Б У Ю Р Т М А Ч И: |
|---|---|
| **«ODIL BEK GOLD HOUSE» MCHJ** | **Мирзачўл туман ирригация булими** |
| СТИР: 309233866 | СТИР 207263913 ОКОНХ 22100 |
| Юридик манзил:Жиззах вилояти Жиззах ш | Шахсий х/р 100022860082237042402170001 |
| Хисоб ракам 20208000205483983001 | Жиззах вилоят Мирзачўл т Гагарин ш |
| Банк номи:Ипотекабанк | Газначилиги ягона хисоб вараги 23402000300100001010 |
| Жиззах филиали МФО: 00122 | Марказий Банк ХККМ |

### 8. Тарафларнинг имзолари ва мухрлари

| ПУДРАТЧИ: | БУЮРТМАЧИ: |
|---|---|
| О.Хамрақулов | И.Суванов |
| М.У. | М.У. |

IJRO.GOV.UZ тизими орқали ЭРИ билан тасдиқланган, Ҳужжат коди: WC2778862435
Мирзачўл тумани ирригация тизимлари ҳавза бўлими

# Yuridik ahamiyatga ega hujjatlarning qonun hujjatlariga muvofiqligi to'g'risida huquqiy xulosa

LH70174173

**1.** Loyihaning turi. Shartnoma.

**2.** Loyihaning nomi.

O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi Sirdaryo-Zarafshon irrigasiya tizimlar xavza boshqarmasi Mirzacho'l tuman irrigasiya bo'limi(keyingi o'rinlarda «Buyurtmachi» deb yuritiladi) nomidan Nizom asosida ish olib boruvchi bo'lim boshlig'i I.Suvanov va «ODIL BEK GOLD HOUSE» MCHJ (keyingi o'rinlarda «Pudratchi» deb yuritiladi) nomidan Nizom asosida ish olib boruvchi raxbari O.Xamraqulovlar 2022 yil 7 mart kuni 96 194 382 (To'qson olti million bir yuz to'qson to'rt ming uch yuz sakson ikki) so'mlik 40627-sonli shartnomasini tuzish to'g'risida.

**3.** Loyiha ishlab chiqaruvchi va kiritilgan sana haqida ma'lumot.

Mirzacho'l tumani irrigatsiya bo'limi tomonidan ishlab chiqilgan va Mirzacho'l tuman Yuridik xizmat ko'rsatish markaziga huquqiy ekspertizadan o'tkazish uchun 10.03.2022 yilda kiritilgan.

Loyiha O'zbekiston Respublikasining 29.08.1998 yildagi "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonuni hamda amaldagi boshqa qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan.

**Markaz Bosh yuriskonsulti** **U.Siddiqov.**

**2022 yil 11 mart.**

Юрист исм фамилияси: SIDDIKOV ULUGBEK JONXURAZOVICH

## Протокол закупочной комиссии по конкурсу лот № 40627 на приобретение Мирзачул туманидаги Р-2 каналини ПК30+00 дан ПК90+00 гача ва ПК110+00 дан ПК156+70 гача булган кисмини механизим ёрдамида тозалаш

Способ проведения электронный

Дата 07.03.2022

Время рассмотрения 07.03.2022 16:05

Конкурсная комиссия Мирзачул туман ирригация булими, (Далее – Комиссия) в составе:

| | | | |
|---|---|---|---|
| **Председатель комиссии** | SUVANOV ISLOM PO'LAT O'G'LI | Рахбар | ирригация |
| **Секретарь комиссии** | BABAJANOV IXTIYOR AMANBAYEVICH | ФБ мухандиси | ирригация |
| **Член комиссии** | ERGASHEV BAXTIYOR MAMARASULOVICH | Гидротехник | ирригация |
| **Член комиссии** | MAXMUDOV UMARBEK ABDUSALIYEVICH | Гидротехник | ирригация |
| **Член комиссии** | XALILOV ZOXID AXROROVICH | Бош гидрометр | ирригация |
| **Член комиссии** | UMIRZAKOV BEKZOD JANABOVICH | Бош гидротехник | ирригация |

Рассмотрев поступивших предложений со стороны участников по опубликованному объявлению на специальном информационном портале от 07.03.2022 года № лота 40627.
Метод оценки предложений – Метод наименьшей цены

Мин. балл: 0

Предмет закупки:

| | |
|---|---|
| **Наименование товара (работы, услуги)** | **Услуги по содержанию водохозяйственных систем и сооружений** |
| Подробное описание | Мирзачул туманидаги Р-2 каналини ПК30+00 дан ПК90+00 гача ва ПК110+00 дан ПК156+70 гача булган кисмини механизим ёрдамида тозалаш |
| Количество товара | 1.00 |
| Единица измерения | |
| Цена товара (услуги) за единицу | 123 326 132.00 |
| Стартовая сумма | 123 326 132.00 |
| Валюта | UZS |

По итогам рассмотрения поступивших предложений по технической части участникам присвоены следующие баллы:

Критерий №1 Танловда иштирок этадиган корхонанинг айланма маблаг хакида маълумотлари ва гувохномаси

Тип: Текстовое значение

Описание: Танловда иштирок этадиган корхонанинг айланма маблаг хакида маълумотлари ва гувохномаси

Обязательность: Не критично

| Наименование участника | Макс балл | Значение участника | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|---|---|---|---|---|---|---|
| **MCHJ TEMUR USMON** | 25 | баланс ва молиявий натижа илова қилинади | 25 | Экспертная | | |

| Наименование участника | Макс балл | Значение участника | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|---|---|---|---|---|---|---|
| ООО BUYUK SHOHJAHON | 25 | Корхонамиз обьектни уз вактида сифатли топширади | 25 | Экспертная | | |
| ODIL BEK GOLD HOUSE MCHJ | 25 | Айланма маблаг ва гувохнома такдим килинди | 25 | Экспертная | | |

Критерий №2 Танловда иштирок этадиган корхонанинг доимий ишчилари тугрисида маьлумот

Тип: Текстовое значение

Описание: Танловда иштирок этадиган корхонанинг доимий ишчилари тугрисида маьлумот

Обязательность: Не критично

| Наименование участника | Макс балл | Значение участника | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|---|---|---|---|---|---|---|
| MCHJ TEMUR USMON | 25 | корхонада 5 нафар доимий ва 20 нафар мавсумий ишчилар мавжуд | 25 | Экспертная | | |
| ООО BUYUK SHOHJAHON | 25 | Корхонада 5 нафар доимий ва 10 нафар мавсумий ишчилар мавжуд | 25 | Экспертная | | |
| ODIL BEK GOLD HOUSE MCHJ | 25 | Корхонамизда 15 нафар малакали ходимлар фаолият юритади | 25 | Экспертная | | |

Критерий №3 Танловда иштирок этадиган корхонанинг солик ва бошка идоралардан карздорлиги мавжуд эмаслиги тугрисида маьлумот.

Тип: Текстовое значение

Описание: Танловда иштирок этадиган корхонанинг солик ва бошка идоралардан карздорлиги мавжуд эмаслиги тугрисида маьлумот.

Обязательность: Не критично

| Наименование участника | Макс балл | Значение участника | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|---|---|---|---|---|---|---|
| MCHJ TEMUR USMON | 25 | корхонанинг солиқ ва бошқа ташкилотлардан қарздорликлари мавжуд эмас | 23 | Экспертная | | |
| ООО BUYUK SHOHJAHON | 25 | Корхонамиз обьектни уз вактида сифатли топширади | 25 | Экспертная | | |
| ODIL BEK GOLD HOUSE MCHJ | 25 | Бугунги кун холатига солик ва бошка идоралардан карздорлик мавжуд эмас | 22 | Экспертная | | |

Критерий №4 Механизи ёрдамида тозалаш учун Экскаватори ва керакли транспорти булиши шарт

Тип: Текстовое значение

Описание: Механизи ёрдамида тозалаш учун Экскаватори ва керакли транспорти булиши шарт

Обязательность: Не критично

| Наименование участника | Макс балл | Значение участника | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|---|---|---|---|---|---|---|
| **MCHJ TEMUR USMON** | 25 | Корхонада 1 дона махсус эксковатор билан шартномаси мавжуд | 25 | Экспертная | | |
| **OOO BUYUK SHOHJAHON** | 25 | Корхонамиз обьектни уз вактида сифатли топширади | 25 | Экспертная | | |
| **ODIL BEK GOLD HOUSE MCHJ** | 25 | Эекковатор ва бошка махсус техникалар мавжуд | 25 | Экспертная | | |

Оценка участников финансовой части составила:

| Наименование участника | Стартовая сумма | Предлагаемая сумма | Дата предложения | Оценка стоимости (балл) |
|---|---|---|---|---|
| **MCHJ TEMUR USMON** | 123 326 132.00 | 97 123 451.00 | 04.03.2022 12:32:13 | 99.04 |
| **OOO BUYUK SHOHJAHON** | 123 326 132.00 | 96 450 000.00 | 05.03.2022 11:39:02 | 99.73 |
| **ODIL BEK GOLD HOUSE MCHJ** | 123 326 132.00 | 96 194 382.00 | 07.03.2022 15:24:45 | 100.00 |

Итоговая оценка участников включая финансовой части составила:

| Наименование участника | Общий балл по технической части | Общий балл по финансовой части | Итоговый балл |
|---|---|---|---|
| **MCHJ TEMUR USMON** | Прошел | 99.04 | 99.04 |
| **OOO BUYUK SHOHJAHON** | Прошел | 99.73 | 99.73 |
| **ODIL BEK GOLD HOUSE MCHJ** | Прошел | 100 | 100 |

Закупочная комиссия по конкурсу лот № 40627 от 07.03.2022 года на приобретение Мирзачул туманидаги Р-2 каналини ПК30+00 дан ПК90+00 гача ва ПК110+00 дан ПК156+70 гача булган кисмини механизим ёрдамида тозалаш определила победителем:

ODIL BEK GOLD HOUSE MCHJ
309233866

и резервный исполнитель: OOO BUYUK SHOHJAHON (308286438)

Проголосовали

| Комиссия | Ф.И.О. | Голосование | Комментарии |
|---|---|---|---|

| | | | |
|---|---|---|---|
| **Член комиссии** | UMIRZAKOV BEKZOD JANABOVICH | Согласен | |
| **Председатель комиссии** | SUVANOV ISLOM PO'LAT O'G'LI | Согласен | |
| **Член комиссии** | ERGASHEV BAXTIYOR MAMARASULOVICH | Согласен | |
| **Член комиссии** | MAXMUDOV UMARBEK ABDUSALIYEVICH | Согласен | |
| **Член комиссии** | XALILOV ZOXID AXROROVICH | Согласен | |

Протокол закупочной комиссии подписан посредством ЭЦП

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QURILISH VAZIRLIGI
«SHAHARSOZLIK HUJJATLARI EKSPERTIZASI»
DAVLAT UNITAR KORXONASI

Жиззах вилояти

130100, Jizzax shahri, Sh.Rashidov koʻchasi, 1-uy, Tel. +99878 771-70-15, Faks: +99878 771-70-15, E-mail: jizzah_expertiza@mail.ru www.ekspertiza.mc.uz www.mc.uz

Holati: Tasdiqlandi
Direktor: Kulmuradov Yusup Baxriyevich
Sana:26-11-2021 yil

**Yig'ma ekspert xulosasi № 25669**

**Obyekt nomi** «Jizzax viloyati Mirzachul tumanidagi R-2 kanalini PK30+00 dan PK90+00 gacha va PK110+00 dan PK156+70 gacha bo'lgan qismini mexanizm yordamida tozalash»

**Buyurtmachi –** Sirdaryo-Zarafshon irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi Mirzacho'l tuman irrigatsiya boʻlimi
**Bosh loyihachi** - "BUNYODKOR MELIORATOR LOYIHA" MChJ, AL-000856
**Litsenziya** O'zbekiston Respublikasi Qurilish Vazirligi 2020.06.15
**Moliyalashtirish manbai** - Davlat mablag'lari.
**Bosh pudratchi** – Tender tanlovi asosida.
**Qurilish turi** Joriy ta'mirlash.
**Murojaat raqami:** № 25017

**1. Loyihalash uchun asos**

"Mirzacho'l tuman irrigatsiya" boshligʻi I.Suvanov tomonidan 2021 yilda tasdiqlangan "Loyixalash topshirigʻi" va bajariladigan ishlar uchun "Nuqsonlar dalolatnomasi".

**2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar**

1. "Mirzacho'l tuman irrigatsiya boʻlimi" boshligʻi I.Suvanov tomonidan smeta hujjatlarini tayyorlash va ekspertiza koʻrigidan oʻtkazish uchun 2021 yil 10 noyabrdagi 57- sonli xati.

2. Tasdiqlangan xoʻjalik topshirigʻi va bajariladigan ishlar nuqson dalolatnomasi.

3. Qisqacha tushintirish yozuvi;

4. Smeta xujjatlari (Yigʻma resurs smetalari va lokal resurs qaydnomalari, ish hajmlari hisobi);

5. 10,67 km oraliq qismlar uchun boʻylama va koʻndalang kesim chizmalari;

6. Mashina-mexanizmlarni ekspluatatsiya qilishning 1 mash/soat narxi boʻyicha ekspertiza xulosalaridan nusxalar.

**3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni**

1 Ishchi loyiha smeta hujjatlari Mirzachul tumanidagi R-2 kanalining 10,67 km oraliq qismlari uchun koʻndalang va boʻylama kesim chizmalari boʻyicha hisob kitoblari asosida va buyurtmachi tomonidan oʻrganilib chiqilib tasdiqlangan “Nuqsoniy dalolatnoma” asosida ishlab chiqilgan.

Mexanizm yordamida tozalash ishchi loyihaning maqsadi, kanalning shu oraliq qismini mexanizm yordamida tozalab, suv o'tqazish qobiliyatini yaxshilab, kanalni ekspluatatsiya qilish jarayoni yaxshilashdan iborat.

2. Ishchi loyiha smeta hujjatlarida quyidagi asosiy ishlar ko'zda tutilgan:

Tozalash sig'imi 0,5m3 li ekskavator yordamida va chiqarilgan loyqani 96 kvtli buldozer yordamida tekislash ishlari bajarish ko'zda tutilgan.

**4. Loyihalanayotgan ob'ektning muhandislik ta'minoti:**

"Jizzax viloyati Mirzachul tumanidagi R-2 kanalini PK30+00 dan PK90+00 gacha va PK110+00 dan PK156+70 gacha bo'lgan qismini mexanizm yordamida tozalash" ishchi loyihasida muhandislik ta'minoti ishlari ko'zda tutilmagan.

**5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.**

Buyurtmachi loyihaviy hujjatlarni tasdiqlashdan oldin belgilangan tartibda barcha manfaatdor vakolatli organlar bilan kelishishi lozim.

**6. Ekspertiza natijalari.**

1. Ishchi loyiha ekspertizaga buyurtmachining e'tirozlarisiz taqdim qilindi.

2. Ob'ektning qurilish narxi "Qurilish iqtisodiyoti instituti" MChJ tomonidan ishlab chiqilayotgan joriy narxdagi kataloglar (2021 yil III-chorak), amaldagi (haqiqiy,bozor sharoitlariga ko'ra) narxlarni xisobga olgan holda ishlab chiqilgan va ekspertizaga taqdim qilingan.

Smeta xujjatlarida ish hajmlari hisobi ishchi chizmalar bilan solishtirilganda xatolikga yo'l qo'yilganligi aniqlandi va qayta ko'rib chiqish uchun qaytarildi.

a) Buyurtmachi tomonidan smeta qiymati QQS bilan birga hisoblaganda buyurtmachi xarajatlari bilan **126 856,132** ming so'm taqdim etilgan. Ushbu so'mmada **3530,00** ming so'm "buyurtmachining boshqa xarajatlari" tashkil qilgan.

Smeta hujjatlaridan buyurtmachining boshqa xarajatlari obektning umumiy bahosidan chiqarilishi natijasida obekt bahosi QQS bilan birga **3530,00** ming so'mga kamaydi. (Loyihachi tashkilotga ish hajmlari hisobida xatolikga yo'l qo'yilgani, ish hajmlari jadvalidagi ko'rsatkichlar ba'zi bir piketlarda chizmalarga mos kelmasligi ta'kidlangandi, loyihachi tashkilot tomonidang javob xatida ish hajmlari hisobida xatolikga yo'l qo'yilganligi, yakuniy hisob-kitoblarda umumiy ish hajmi o'zgarmaganligi aytilgan).

Tanlovga takdim etilayotgan ishlarning dastlabki narxini xisoblashda, ob'ekt qurilishining joriy narxlardagi umumiy bahosidan "buyurtmachining boshqa xarajatlari"ni chiqarib tashlash yo'li bilan aniqlanadi.(ShNQ4.01.16-09, 4-bob. 4.20-bandi,buyurtmachining boshqa xarajatlari ShNQ4.01.16-09 ning 4.13 va 4.14 bandlariga muvofiq hisoblanadi).

b) Smeta hujjatlarida nazarda tutilgan ish haqi bo'yicha xarajatlarni aniqlashda, qabul qilingan 1 kishi/soat 13046,9136 so'm ( ijtimoiy sug'urtaga ajratma 12% bilan) va pudratchining "boshqa xarajatlari" bo'yicha xarajatlarni aniqlashda qabul qilingan 18.58% ko'rsatkich tavsiyaviydir, pudratchi bilan xarajatlarni hisob-kitob qilishda ushbu ko'rsatkichlar ShNQ4.01.16-09 bilan tartibga solingan holda olib borilishi tavsiya etiladi.

**7. Xulosalar.**

1. Lokal ekspert xulosa natijalarini xisobga olgan holda "**Jizzax viloyati Mirzachul tumanidagi R-2**

**kanalini PK30+00 dan PK90+00 gacha va PK110+00 dan PK156+70 gacha bo'lgan qismini mexanizm yordamida tozalash**" ishchi loyihasi bo'yicha tayyorlangan smeta hujjatlarini kelgusida kelishish hamda tasdiqlash uchun buyurtmachining boshqa harajatlarisiz va 15 % QQS bilan xisoblaganda umumiy miqdorda **123 326,133** ming so'm tavsiya etiladi.

Shù jumladan:

- qurilish montaj ishlari xarajatlari – **106 898,041** ming so'm;

- qurilish vaqtida qurilish obektini sug'urtalashga sarflangan xarajatlar – **342,074** ming.so'm;

- qo'shimcha qiymat solig'i 15% – **16 086,017 ming** so'm.

- jami ishchi-quruvchilar mehnat sarflari – **23,69** kishi/soat.

- ishchi quruvchilarning o'rtacha bir soatlik ish xaqi "Qurilish iqtisodiyoti instituti" MChJ chiqarayotgan 2021-yil III-chorak katalog asosida **11 649,03 x 1,12 = 13 046,9136** so'm ijtimoiy sug'urtaga ajratma 12 % qabul qilingan. (Ijtimoiy sug'urtaga ajratma foizi pudratchining haqiqiy harajatlari bo'yicha buxgalteriya hujjatlari asosida amalga oshiriladi).

2. Eslatma: Obektning dastlabki bahosini aniqlashda sig'imi 0,5m3 li ekskavator uchun 1 mash/soat-181882 so'm narx "Jizzax suv qurilish invest"ning 2019 yilgi obektlari uchun prognoz qilingan narxlarga tayanilib loyixachi tomonidan smetaga kiritilgan. Ushbu taklif etilgan narxlar bajarilgan qurilish-montaj ishlari uchun o'zaro hisob-kitoblar uchun asos bo'lib xizmat qila olmaydi, ushbu narxlarni qabul qilish bo'yicha yakuniy qaror ShNQ 4.01.16-09 talablariga, amaldagi me'yoriy hujjatlar hisobga olgan holda buyurtmachi va pudratchi tomonidan birgalikda qabul qilinadi.

(Mashina va mexanizmlardan foydalanishda mash/soat.ning joriy narxini O'zbekiston Respublikasi Davarxitektkurilish qo'mitasining 06.05.2004 y. 31-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "Qurilish mashinalari va mexanizmlaridan foydalanishda hisoblangan joriy narxlarni aniqlash bo'yicha uslubiy tavsiyalar" asosida aniqlash tavsiya etiladi).

**<u>Ta'kidlash joizki</u>**: **Buyurtmachiga** loyiha hujjatlarini tasdiqlashdan oldin quyidagilarni qayta ko'rib chiqish tavsiya etiladi:

- pudratchi boshqa xarajatlarining aniq sarfi;

- ish haqi xarajatlarining pudratchi tashkilotning o'tgan 12 oydagi o'rtacha oylik ish haqi darajasidan kelib chiqqan holda bir odam/soat ish haqidan olinganligi.

- Mashina va mexanizmlardan foydalanishda 1-mash/soat.ning joriy narxini.

3. Yakuniy harajat buyurtmachi va pudratchi tomonidan qurilish tugagandan so'ng, haqiqiy (ijro hujjatlari) nazorat natijalari asosida aniqlanadi.

4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 17.09.2021 yildagi №579 sonli qarorning I-ilova 3-bob 29-bandiga asosan «Ekspert tashkilotiga taqdim etilgan shaharsozlik hujjatlari sifati, dastlabki ma'lumotlarning haqqoniyligi va qabul kilingan loyixa yechimlari bo'yicha buyurtmachi va loyiha tashkiloti javobgardir.

5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 11.06.2003-yildagi №261 qarori bilan tasdiqlangan "Qurilish ob'ektlari narxini joriy shartnoma narxlarida aniqlash tartibi to'g'risida vaqtinchalik qoidalar"ga va ShNK 4.01.16.09 ga binoan qurilishning narxi tavsiyaviydir.

6. Ko'rsatilgan narxni tanlov savdolari uchun qabul qilish to'g'risida buyurtmachi qaror qabul qiladi.

7. "Nuqsonlar dalolatnomasi" xaqqoniyligi va ishonchliligi uchun javobgarlik buyurtmachiga va loyixachi tashkilot zimmasiga yuklatiladi.

**Bosh mutaxassis:** DJURAEV ANVAR LAPASOVICH